

# Fayzullayeva Nasiba Nurullayevna "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.

// 07.03.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/video/fayzullayeva-nasiba-nurullayevna-shuhrat-medali-bilan-mukofotlandi>

Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko'rsatish, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o'zining ko'p yillik samarali mehnati, boy tajribasi bilan bugungi tub islohotlarimizda faol qatnashib, Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini oshirish yo'lida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shayotgan opa-singillarimizni munosib taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risidagi farmoni bilan "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatining Polipropilen qop ishlab chiqarish sexi operatori Fayzullayeva Nasiba Nurullayevna "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.